

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
D.E.Normatova Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
B.E.Xusanov Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
N.M.Axmadiyev Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
N.N.Teshayev Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari	223
K.G’.Kamolova Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni	227
M.M.Qaxxorova, B.Farfiev Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
K.U.Sharipova Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
S.A.Xayrullayev Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
O’.X.Rajabov Maslahat – konsensusning sinergetik omili	248
Sh.T.Abbosova Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch	251

SIYOSAT

K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
A.A.Abdilxamedov Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
B.Y.Paluaniyazov Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
U.M.Kuranov Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati	270

ТАРИХ

Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
M.X.Исамиддинов Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
X.Raxmatillayev Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar	314
F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari	318
N.S.Abdullayeva Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
S.B.Xakimova “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
Ш.Т.Темиров Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие	332

TURKISTONDA XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDAGI ETNIK JARAYONLAR

ЭТНИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В ТУРКЕСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

ETHNIC PROCESSES IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY

Raxmatillayev Xasanboy¹¹Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi**Annotatsiya**

Maqolada tarixiy manbalar va adabiyotlarga asoslangan holda Turkiston mintaqasidagi etnik jarayonlar yoritilgan. Jumladan, Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj va Turkmaniston hududiga tegishli Murg'ob daryosi vohalaridagi, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan, Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit, Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'hna Urganch, Xazarasp, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) kabi shaharlar va aholi maskanlarida istiqomat qilgan aholining etnik tarkibi to'g'risida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini egallagandan keyin yuz bergan etnik jarayonlar, aholini ko'chirish siyosati kabi masalalar bayon etilgan.

Аннотация

В статье на основе исторических источников и литературы описаны этнические процессы в Туркестанском регионе. В частности, в Зарафшанской долине, Кашкадарьинском и Сурхандарьинском оазисах, в речных оазисах Вахш, Кокфирнихон, Пяндж и Мургаб на территории современного Таджикистана, в Маргилане, Узгене, Андижане, Намангане, Ташкенте, Шымкенте, Туркестане, Авлиете, Пишпаке, Сузаке. , Сузак, Сузак, Сузак сведения об этническом составе населения, проживающего в таких городах и поселках, как Хива, Ургенч, Кат, Старый Ургенч, Хазарасп, Кунград, Ходжайли, Курдар (ныне Чимбай). Также охватывает такие вопросы, как этнические процессы и политика переселения, которой подверглась Российская Империя после оккупации Туркестана.

Abstract

The article describes ethnic processes in the Turkestan region on the basis of historical sources and literature. In particular, in the Zarafshan Valley, Kashkadarya and Surkhandarya oases, in the Vakhsh, Kofirnikhon, Panj and Murghab river oases on the territory of modern Tajikistan, in Margilan, Uzgen, Andijan, Namangan, Tashkent, Shymkent, Turkestan, Avliet, Pishak. , Suzak, Suzak, Suzak information on the ethnic composition of the population living in cities and towns such as Khiva, Urgench, Kat, Sary Urgench, Khazarasp, Kungrad, Khojaili, Kurdar (now Chimbay). It also covers issues such as ethnic processes and resettlement policies that the Russian Empire underwent after the occupation of Turkestan.

Kalit so'zlar: Turkiston, etnik tarkib, Buxoro amirligi, Xiva Xonligi, Qo'qon xonligi, qozoqlar, turkmanlar, o'zbeklar, sartlar, tojiklar.

Ключевые слова: Туркестан, этнический состав, Бухарский эмират, Хивинское ханство, Кокандское ханство, казахи, туркмены, узбеки, сарты, таджики.

Key words: Turkestan, ethnic composition, Bukhara Emirate, Khiva Khanate, Kokand Khanate, Kazakhs, Turkmens, Uzbeks, Sarts, Tajiks.

KIRISH

Dolzarbliigi: XIX asrga kelib Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududi, aholisi va tabiiy resurslari bilan muhim mavqega ega bo'lib qolgan edi. Uning geografik hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etgan bo'lib, chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan Sirdaryogacha cho'zilib, shimoliy qismi qozoq juzlari bilan yakunlangan edi. Amirlik sharqda Pomir tog'laridan g'arbda Xiva xonligi hududlarigacha bo'lgan yerlarni tashkil etgan. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar amirlikning markaziy qismi hisoblanib, Zarafshon vodiysida joylashgan edi. Shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj va Turkmaniston hududiga tegishli Murg'ob daryosi vohalaridagi zaminlar ham Buxoro amirligiga ta'luqli edi. Uning poytaxti Buxoro sharif bo'lgan. Shu bilan birga, yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Xisor, Dushanbe, Kulob hisoblangan. Bundan tashqari Buxoro bilan Xiva o'rtasidagi Marv va Chorjo'y, xamda Quqon bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari ular o'rtasida qo'ldan-qo'lga o'tib turgan edi. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 millionga yaqin aholi yashagan. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida – 500 ming, Surxondaryo vohasida – 200 ming, Sharqiy Buxoroda – 500 ming aholi yashar edi. Aholining etnik jarayoni qavm-

TARIX

urug'lardan iborat bo'lib, ularning 57 foiziga yaqini o'zbeklarni tashkil etgan. Bundan tashqari o'sha davrda o'zbek elati tarkibiga kirgan mang'it, saroy, qo'ng'iroq, jabg'u, qarliq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ham ko'pchilikni tashkil etgan edi [6. 44].

Xiva xonligi esa o'sha davrda janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Shu bilan birga xonlik o'zining suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turar edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'hna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'iroq, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) kabi shaharlar xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. Aholining ko'pchilik qismini o'zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, va qipchoq qabilalar edi. Bundan tashqari xonlik hududida turkmanlar va qoraqalpoqlar ham yashagan [6. 47].

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat bo'lgan. Xonlik sharqdan Sharqiy Turkiston, g'arbdan Buxoro amirligi va Xiva xonligi, shimoldan Rossiya o'rtasida huvullab yotgan Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari, janubdan esa Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non kabi tog'li o'lkalarni o'z ichiga olgan xolda chegaralanib turar edi. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, xonlik o'zining sersuv daryolari, so'lim vodiylari, serhosil va unumdor yerlari bilan ham Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farq qilar edi. Uning markazi Qo'qon bo'lib Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan, Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi.

Qo'qon xonligida aholi ma'lum darajada zich joylashgan bo'lib, o'sha davrda 3 millionga yaqin kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkent shahrida esa 60 ming kishi yashagan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismini o'zbeklar, qolganlari esa tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlar edi. Shu bilan birga ular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham yashar edi [6. 48-49]. Bundan xulosa qilish mumkinki, XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo aholisining etnik tarkibiga keskin ta'sir etadigan voqealar bo'lmagan, ya'ni Markaziy Osiyodagi amirlik va xonliklar hududlariga boshqa hududlardan yirik aholi migratsiyalari bo'lmagan. Xonliklar o'rtasidagi turli mojarolar bo'lib turgan bo'lsa ham, lekin ko'psonli mahalliy aholi orasida konsolidatsiya (o'zaro yaqinlashuv) jarayonlari davom etgan edi.

Bizga tarixiy manbalardan ma'lumki, Kavkaz, Volgabo'yi, Sibir va O'rta Osiyo ustidan hukmronlik qilish rus podsholarining azaliy orzu-niyatlari bo'lgan edi. Rossiya podshosi Ivan Grozniy ana shu niyatlarni amalga oshirishni boshlab bergan edi. U XVI asrning ikkinchi yarmida Qozon, Ashtarxon va Sibir xonliklarini bosib olgan edi [6. 27].

METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

Podsho Rossiyasi o'zbek xonliklari to'g'risida aniq ma'lumotlar to'plash va ularni sinchiklab o'rganishga Pyotr I davridan jiddiy kirishgan. Buning uchun u Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligiga turli harbiy va ilmiy ekspeditsiyalar jo'natib, ulardagi mavjud ahvolni xar tamonlama o'rgangan. O'rta Osiyo yerlariga kirib borish esa XIX asrning ikkinchi yarmidan ya'ni podsho Nikolay 1 davridan (1825-1855) boshlangan edi. Shuni ta'kidlash joizki, Rossiyani 1853-56 yillardagi Turkiya bilan Qrim urushida mag'lubiyatga uchrashi, 60-70 yillarda Rossiyada o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar, AQShdagi fuqarolar urushi tufayli Rossiya fabrikalariga keltiriladigan paxta tolasini keskin kamayishi, qolaversa, krepostnoylik bekor qilingandan so'ng yersiz yoki kam yerli aholining istilo qilingan hududlarga ko'chirish maqsadi ham hukumat rejasida mavjud bo'lgan.

Mana shunday holatda Turkiston mintaqasi Rossiya uchun eng arzon xom ashyo manbai va tayyor sanoat mollarini sotadigan bozor sifatida zarur bo'lib qolgan edi.

Chor Rossiyasining istilochilari, 1853-yilda dastlab, Qo'qon xonligining Oqmachit qal'asini egallash bilan o'zlarining mustamlakachilik siyosatlarini boshlagan edilar. Birin-ketin Pishpak, To'qmoq qal'alari, Avliyoota, Turkiston va so'ng Buxoro amirligining hududlarini, oxiri Xiva yerlarini qo'lga olib, O'rta Osiyoda o'z siyosiy mavqelarini mustahkamlab oladilar. 1867-yilda tarkibida Sirdaryo va Yettisuv vloyatlari bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi tuzilib, 90-yillarda uni viloyatlarining soni 5 taga yetgan edi. Turkiston Xazina Palatasi tomonidan tuzilgan ijtimoiy xo'jalik boshqarmasi hujjatlarida ko'rsatilishicha, 1884-yilda Qo'qon shahrida 7711 hovli bo'lib, ularda 60 ming o'zbek, 2400 tojik, 420 qirg'iz, 410 lo'li, 302 rus, 72 dungan, 21 hind, 17 afg'on istiqomat qilgan [6. 235].

Chor Rossiyasi juda uzoqni o'ylab ish tutdi, ya'ni qanday qilib bo'lsa ham o'lka boyligini Rossiya manfaatiga xizmat ettirish yo'llarini qidirib topadigan iqtisodchi, moliyachi, injener-texnik va irrigator mutaxassislarni Turkistonga yubora boshladi. Shulardan biri A.V.Krivosheyn Turkistonda qo'yidagi ishlarni amalga oshirish kerakligini ta'kidlaydi, paxtachilikni rivojlantirish, irrigatsiya inshootlarini qurish, Rossiya qishloqlaridan aholini ko'chirib keltirishni joriy etish kabi talablarni qo'ydi [1. 282]. Shundan so'ng, Rossiya guberniyalaridan rus dehqonlarini ko'chirib keltirish va ularni 10 tanobdan kam bo'lmagan yer bilan ta'minlab joylashtirish qonunlashtirildi [1. 283]. Imperiyaning qoratuproqli markaziy hududlarida yer tanqisligi tufayli hamda rus kapitalizmining tayanchi sifatida Rossiyaning markaziy guberniyalaridan rus dehqonlarini ko'chirish boshlanib ketdi. 1875-1890 yillar oralig'ida Turkistonga 1300 oila ko'chib kelib, o'lkada 19ta rus qishlog'i tashkil topdi. 1891-1892 yillardagi ocharchilik tufayli keluvchilar soni ko'payib, yana 25ta rus qishloqlari tashkil topgan edi [1. 284]. 1896-yilgi "Nizom" Turkistonda paxta yakkahokimligiga yo'l ochdi. Turkistondan Rossiyaga yuboriladigan paxtadan boj olinmaydigan bo'ldi. Soliq solishda ham paxtakorlarga ayrim imtiyozlar berildi. Bunday siyosat Turkistonga Rossiyadan ko'chib keladigan rus dehqonlarini sonining ko'payishiga olib keldi. Natijada, XX asr boshiga kelib, Turkistondagi ruslarning soni 197 mingdan oshib ketdi. 1906-1915 yillarda Sirdaryo va Farg'ona vodiysida rus dehqonlari uchun mahalliy aholining 749,9 ming tanob yeri musodara qilindi. Rossiya uchun paxta ekiladigan maydon 1885-yilda 41,4 ming tanob bo'lsa, 1915 yilga kelib, uning miqdori 541,9 ming tanobdan oshib ketgan [1. 286]. XX asr boshida o'lkaning birgina Farg'ona viloyatida mahalliy, rus va chet el kapitaliga qarashli 157 ta paxta tozalash zavodi faoliyat ko'rsatar edi. 1916-yilga kelib, Turkistonda paxtaning Amerika navini ekish 7 martaga kengaygan.

O'lkani Rossiya bilan bog'laydigan temir yo'l ishga tushgach, rus va chet el kapitalining Turkistonga kirib kelishi yanada jadallashdi. Birinchi jahon urushi arafasida Turkistonda dastlabki elektr stansiyalar paydo bo'ldi. Masalan, "Chimyon" neftni haydash zavodi dizel elektr stansiyasidan quvvat olardi. Qovunchi qand zavodi esa xususiy GES iga ega edi. Turkiston o'lkasida elektr quvvatining ishlatilishi hali boshlang'ich bosqichida bo'lgan davrda, G'arbiy Yevropa mamlakatlari esa bu yo'lni 30-50 yil oldin bosib o'tishgan edi. Kapitalistlar qurilish ishlarida arzon ishchi kuchiga ehtiyoj sezganlari sari podsho ma'muriyati o'lkaga chet el fuqarolarining ish izlab kelishiga to'sqinlik qilmagan. Birgina Farg'ona vodiysiga faqat Qo'shqardan uyg'ur va dungan xalqlaridan, 1904-yili 14556 kishi, 1905-yili 13337 kishi, 1907-yili 25056 kishi, 1909-yili 12725 kishi, 1911-yili 26463 kishi, 1912-yili esa 27174 kishi ishlash uchun kelgan edi. Bundan tashqari, Afg'oniston, Eron, va Sharqiy Turkistondan ham ish qidirib kelganlar bo'lgan. Ular asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida, konlarda, qurilishlarda va temir yo'llarida qora ishchi bo'lib faoliyat ko'rsatganlar [6. 239-241].

TADVIQOT NATIJALARI

Turkistonda 1897-yilga qadar aholi ro'yxati o'tkazilmagan, birinchi aholi ro'yxati o'z xususiyatlariga ega bo'lsa-da, undagi ayrim ma'lumotlardan foydalanishimiz mumkin. Jumladan o'lkaning eng yirik shahri Toshkentda 155,710 kishi yashagan, eng aholi zich uyezdlar Qo'qon va Andijon bo'lib, ularda 1kv.km.ga 28,3 kishi to'g'ri kelgan [4. 61].

Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyati ma'muriyati tomonidan to'plangan ma'lumotga ko'ra viloyat aholisining umumiy soni 716,1 ming kishini tashkil etgan, ulardan o'zbeklar 475,6 ming, shuningdek, qipchoqlar 5,6 ming, turk 5,1 ming, kurama 1,4 ming, va yuzlar 0,3 ming kishi yashagan. Umuman olganda, keyinchalik o'zbeklarning umumiy soni 493,8 ming kishini (69%), qirg'izlar 104,1 ming(14,5%) va tojiklar 43 ming (6%) ni tashkil etgan [5. 38]. Aholining umumiy soni bu davrlarda juda tez o'sgan. Masalan, 1890-yilda 801,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1891-yilda 801,6 ming, 1892 yilda-822 ming, 1893-yilda-951,7 ming, 1895 yilda-1045,7 kishini tashkil etgan.

XULOSA

Aholi sonini g'oyat ortishi haqiqiy o'sish hisobiga emas, balki ko'chirish siyosati bilan, Rossiyaning markaziy qismidan, Uraldan, Volga bo'yidan hamda imperiyaning janubiy viloyatlaridan kelgan rusiyazon xalqlar evaziga bo'lgandir. Yoki yana bir misol, 1877-yilda asos solingan shahar-Yangi Marg'ilon (Farg'ona)da ruslar soni, harbiylarni qo'shib hisoblaganda, mahalliy aholiga qaraganda birmuncha ko'proq bo'lgan [5. 39]. Shunday qilib, XIX asrdagi etnik jarayonlar natijasida o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar yashagan hududlar

TARIX

stabillashib, ularning har birida urug', qabila va elatlarning assimilyatsiya va mujassamlashuv jarayonlari davom etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bu davrda chorizmning ko'chirish siyosati bilan ruslar, ukrainlar, belaruslar, nemislar, yevreylar, armanlar totarlar [2. 126], va boshqalarning kelib joylashishlari amalga oshgan edi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, XX asr arafasida o'zbeklarning mang'it, nayman, ming, kenagas va boshqa qabilalari o'zligini saqlab qolganlar.

Qolaversa, aholi o'zini millati yoki elatiga qarab emas, balki ma'lum bir yirik shaharga ko'chib kelgan bo'lsa, (masalan Toshkentga) ularni mahalliy aholi tomonidan Andijonlik, Qo'qonlik, Marg'ilonlik deb atash an'anasi ham keng tarqalgan edi.

Samarqandning eski shahar qismi mahallalarining nomlari hozirgi kungacha o'sha joyning tub aholisini kelib chiqish joyi bilan "Guzari Andijoni", "Guzari Toshkandi", "Guzari Zomini", "Guzari Yomini" va h.k. deb, atalib kelinadi [3].

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Askarov A. Ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people. T.: "University", 2007.
2. Gaffarov Sh. The fate of the Uighurs and Dungsans, resettled to Turkestan // History of the Fergana Valley in new research. Fergana, 2014.
3. Field materials. From a personal interview with Hasanov Muhammadjon, a resident of Samarkand. The interview took place on December 21, 2014.
4. Overview of the Fergana region for the year 1890. New Margilan, 1892. The first general census of the population of the Russian Empire. 1897. T 89. P.61.
5. Rahmatillaev X. Ethnodynamics of the population of the Fergana Valley. Tashkent "YANGI NASHR" 2013.
6. New history of Uzbekistan. Turkestan during the colonial period of Tsarist Russia. Tashkent, 2000.
7. Yuldashev S.B. Samanids of Ferghana // International journal for social studies. 2020. vol. 6. Issue 01. – P. 120–135.
8. Isamiddinov M. The history of emergence of Sughd Cities // EPRA International Journal of Research and Development. Volume:5, Issue:10, October 2020 India. – P. 125–128.
9. Mirsoatova S.T. New data on the late paleolithic of the Fergana valley // Евразийский союз ученых (2020. – № 10 (79/4). – P. 25–29.
10. Farmanova G.K. The role of the geographic environment and climatic conditions in the formation of economic-cultural type of population when during ancient and antic period // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 11, November 2020. – P. 1612–1622. Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01639.0.
11. Rakhmatillayev H. Ethnodynamics of the city population of the Fergana valley of the first half of the XX century // EPRA International Journal of Research and Development. Volume: 5, Issue:5, May 2020. – P. 532–535.
12. Arslonzoda R. Memoirs as asourse on the history of Uzbekistan in the second half of the 19th – early 20th centuries // EPRA International Journal of Research and Development. Volume: 5, Issue:10, October 2020. – P. 119–124.
13. Mahmudov O. *The beginning of the European renaissance*. ERPA International Journal of Research and Development. 2020; Vol. 5 (7). – P. 104–108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>
14. Yuldashev S. Visit of chinese ambassador dung wan to Fergana // The history of the Fergana valley in new researches. – Fergana, 2021. – P. 123 – 131. <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1240>